

## Sinfdan Tashqari O'Qishni Tashkil Etishning Ilmiy- Pedagogik Shart- Sharoitlari

*Boltayeva Mehriniso Ilhamboy qizi*<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarning o'qish savodxonligi darslaridan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning shart-sharoitlari va darslar jarayonida fanlararo integratsiyani hosil qilib, zamonaviy darslar tashkil etish usullari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Kitob, kitobxonlik, sinfdan tashqari o'qish, "Kitobim oftobim", "Ertaklar bayrami", "Ifodali o'qish tanlovi"

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning: "Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi", - deya ta'kidlaganlari bejiz emas. Zero, mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan barcha tadbirlar, qabul qilinayotgan hujjatlardan ko'zlangan asosiy maqsad yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Mustaqillik tufayli jonajon Respublikamizning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotida tub islohotlar amalga oshirilayotgan bir sharoitda yangilanayotgan jamiyat fuqarosini tarbiyalash muhim vazifalardan biri, har bir madaniyatli jamiyatdagi demokratik asoslar, tartib-intizom, uning iqtisodiy gullab yashnashi, aholining ma'naviy darajasiga bog'liq.

Umum ta'lim maktabi o'quvchini o'qish malakasi bilan qurollantirish bilan bir qatorda kitobni mustaqil o'qiy oladigan, uni tushunadigan, mulohaza yurita oladigan talabchan o'quvchi, ma'lum bir mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, fikrini bayon eta oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil o'qiydigan faol kitobxonni tarbiyalashga xizmat qilishi zarur. Bu vazifalarni sinfdan tashqari o'qish (STO) darslari sinfdan o'qish mashg'ulotlariga qo'shimcha ravishda tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko'p narsani bilishga havasni oshiradi.

STO'ning maqsad o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan ongli kitobxonni tarbiyalashdir.

Maktablarda 1959-yildan boshlab maxsus STO' darslari tashkil etilgan.

Sinfdan tashqari o'qish o'quv dasturi materiallari bilan mazmun jihatdan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda sinf mashg'ulotiga yaqindan yordam berishi kerak. Bunday faoliyatni tashkillash uchun o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitob o'quvchidan ijodkor, talabchan kitobxon darajasiga ko'tarish talab etiladi. O'quvchilarda kitobga havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir.

Sinfdan tashqari o'qish tanish bo'lmagan mualliflarning ham kitoblari muqovasi, titul varag'i, kirish so'zi, mundarijasi va suratlariga qarab asarning taxminiy mazmunini aniqlash vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarning asosiy vazifasi o'quvchida badiiy kitoblarni o'qishga havas uyg'otish, o'qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita olishga o'rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish hisoblanadi.

<sup>1</sup>Urganch davlat pedagogika institute magistranti



Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, ularning bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish sinfdan tashqari o'qish darslarining ham tub mohiyatini tashkil etadi.

STO' sinfda o'qish bilan uzviy bog'liq ravishda uyushtiriladi. Sinfda o'qish STO' uchun zarur bo'lgan o'qish malakalarini shakllantiradi, o'qigan asarni tushunishga o'rgatadi, lug'atni boyitadi. STO' qiziqarli va o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfda o'qish – hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o'qish esa hayotning o'zidir.

Hozirgi paytda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sinfdan tashqari o'qishga mo'ljallangan "Kitobim – oftobim" nomli qo'llanmalar ham chop etilgan.

Sinfdan tashqari o'qish bosqichlari STO' darslari o'quvchilarda mustaqil kitob tanlash va o'qish malakalarini shakllantiradi. Mustaqil o'qish malakasini shakllantirish 3-bosqichga bo'linadi:

1. Tayyorlov bosqichi. Bu 1-sinfning savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Unga darsning bir qismi – 17-20 daqiqasi ajratilgani uchun "STO' ma'lumoti" deb yuritiladi.
2. Boshlang'ich bosqich. Bu 1-sinfning 2-yarim yilligiga to'g'ri keladi. Bu bosqichda haftada 1 marta 45 daqiqalik dars uyushtiriladi.
3. Asosiy bosqich. Bu bosqich 2-4-sinflarga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilarning o'qish malakalarni mustahkamlanadi. Bunda o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qiganlari baholanadi.

STO' bosqichlari, dastur talablari, tarbiyaviy vazifalari o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi. Masalan, tayyorlov bosqichida kichik hajmdagi asarni o'qituvchi o'qib bersa, o'qilganlar yuzasidan suhbat, qayta hikoyalash o'tkazilsa, boshlang'ich bosqichda butun sinf o'quvchilari bir xil kitob bilan ta'minlanadi, barcha o'quvchilar bitta matn ustida ishlaydilar. Bunda bitta yozuvchi yoki bir mavzudagi asarlar ko'rgazmasi tashkil qilinadi. Asar ichda o'qishga topshirilishi, albomlar tayyorlanishi, kinofilm va diafilmlardan parchalar ko'rsatilishi, musiqiy daqiqalar o'tkazilish hamda asar mazmuni yuzasidan ijodiy rasmlar chizdirilishi ham mumkin. Bu jarayonda kitobni saqlash maqsadida uni yamash, o'rash o'rgatiladi, "Ertaklar bayrami", "Ifodali o'qish tanlovi" o'tkaziladi.

Asosiy bosqich yakunida kichik yoshdagi o'quvchilar faol kitobxon uchun zarur bo'lgan yaxshi o'qish ko'nikma va malakalarini egallashlari, eng muhimi, ularning kitob hamda mustaqil o'qishni yaxshi ko'rishlariga erishish juda muhimdir. Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlash tamoyillarimetodikaning vazifalaridan biri STO' uchun kitoblar tanlash, o'qiladigan adabiyotlar ro'yxatini tavsiya qilish, yillik o'quv rejasi va dars tuzilishi namunalarini ishlab chiqishdir.

Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

1. Kitob tanlashda tarbiyaviy maqsad ko'zda tutiladi.
2. Kitob tanlashda asarlar janri va mavzusining xilma-xilligi e'tiborga olinadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar, asosan, hikoyalar, ertaklar, she'rlar, topishmoqlar, maqollarni o'qishga qiziqqanlari uchun shu janrdagi asarlar tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.
3. Kitobning o'quvchilar yoshi va saviyasiga mosligi hisobga olinadi.
4. Kitob tanlashda o'quvchilarning shaxsiy qiziqishi va mustaqil o'qishi hisobga olinadi.
5. Kitob tanlashda mavsumiy tamoyilga amal qilinadi.

Umuman olganda, kitobni to'g'ri tanlash sinfdan tashqari o'qish muvaffaqiyatini ta'minlashning muhim shartidir. Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlik qilish shakllari quyidagi faoliyatlar bilan amalga oshiriladi. STO'ga rahbarlikning asosiy shakli maxsus sinfdan tashqari o'qish darslaridir. Bunday darslar erkin dars hisoblanadi. STO' darslarida o'quvchilarning kitobxonlik qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodiy qobiliyati rivojlanadi; faol kitobxonga xos ko'nikma va malakalar shakllanadi.



Sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratiladi, shuning uchun ularning qurilishi juda xilma-xil bo'ladi. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchining ijodi hisoblanadi; darsda qanchalik xilma-xillikka, hayotiylikka erishilsa, maqsadga erishish oson kechadi.

Bularga qaramay, STO' darslari o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishi uchun ma'lum talablarga bo'ysunadi. Ular quyidagilardir:

1. Har bir darsda o'quvchilar o'qigan kitoblar (asarlar) hisobga olinadi. Ular o'qigan va o'qiyotgan kitoblarini sinfga olib kelib ko'rsatadilar, ikki-uch o'quvchi o'zlari o'qigankitob haqida gapirib beradi, darsda o'zaro fikr almashish holati yaratiladi (bu holat darsdan tashqari vaqtda ham davom etishi mumkin).
  2. Har bir darsda o'qish uchun yangi kitob (asar)lar tavsiya qilinadi. Tavsiya qilish shakllari turlicha bo'lib, ular fikr almashuv, kitobni ko'rsatish, sinfdan ko'rgazma tashkil etish, o'quvchilarni qiziqtirish uchun tavsiya qilinadigan kitobdan biror parchani o'qib berish, rasmlarni ko'rsatish yoki film namoyish etishdan iborat bo'lishi mumkin.
  3. Har bir darsda o'quvchilarga asarni yaxlit holda o'qitish mumkin. Agar asar hajmi kattaroq bo'lsa, bu ish ikki-uch dars davomida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar o'zlari o'qigan kitobdan biror parchani ovoz chiqarib o'qib berishlari mumkin. Bu jarayonda ichda o'qishdan ham, she'r yodlashdan ham, rollarga bo'lib o'qishdan ham foydalaniladi.
1. Kitobni targ'ib qilish. STO'ga tavsiya qilinadigan asarlar ro'yxati sinfga yoki maktabning maxsus joyiga osib qo'yiladi, ular vaqti-vaqti bilan yangilab turiladi, to'ldiriladi, ko'rgazmalar tashkil qilinadi. O'qituvchi maxsus suhbatlar uyushtiradi.
  2. Yakka tartibdagi yordam va kundalik tekshiruv. O'quvchilarning o'qigan kitoblari yuzasidan suhbat uyushtiriladi, o'qilgan kitoblar hisobga olinadi. STO' yuzasidan ommaviy ishlar. Adabiy ertaklar, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar uyushtiriladi, ular uchun maxsus tayyorgarlik ko'riladi.

O'quvchilarning o'qigan kitoblari og'zaki tarzda ham hisobga olinadi ular o'qiganlari yuzasidan sinfdan tashqari o'qish va sinfdan o'qish darslarida, yakka tartibdagi suhbatlarda gapirib beradilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh. Istiqbolli loyihalar xalqimiz farovonligiga xizmat qilmoqda. "Xalq so'zi". 2018-yil 8 dekabr №253
2. Sayidahmedov N. Noan'anaviy dars. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 98 b.
3. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 282 b.
4. Ziyodova T. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish. Ona tili o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma /Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 80 b.

